

OGAHIY ASARLARIDA “MUHABBAT” KATEGORIYASINING FALSAFIY MOHIYATI VA TALQINI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-223-228>

Sherali Shavkatovich Shavkatov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi

Telefon: +998 93 204 74 04

E-mail: sheradonis2022@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ogahiy lirikasida muhabbat mavzusining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning “Ta’viz ul-oshiqin” devoni misolida ishqning majoziy va ilohiy mohiyati, oshiq obrazining ma’naviy kamolot sari intilishi yoritiladi. Tadqiqot davomida Ogahiy g‘azallaridagi ishq timsollari tasavvufiy qarashlar, Sharq mutafakkirlari va mumtoz adabiyot an‘analari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, muhabbatning zamonaviy jamiyatdagi ma’naviy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, muhabbat, ishq, tasavvuf, ma’naviy kamolot, ilohiy ishq, lirika, “Ta’viz ul-oshiqin”.

Аннотация: В данной статье анализируется художественно-философское толкование темы любви в лирике Агахи. На примере дивана «Таъвиз ул-ошиқин» раскрывается символика божественной и духовной любви, а также стремление влюблённого к духовному совершенству. В ходе исследования любовные мотивы в газелях Агахи сопоставляются с суфийскими взглядами, идеями восточных мыслителей и традициями классической литературы. Кроме того, освещается духовное значение любви в современном обществе.

Ключевые слова: Агахи, любовь, ишк, суфизм, духовное совершенство, божественная любовь, лирика, «Таъвиз ул-ошиқин».

Abstract: This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of love in Agahi’s lyrics. Based on the divan “Ta’viz ul-oshiqin”, the study reveals the symbolic meanings of divine and spiritual love as well as the lover’s aspiration toward spiritual perfection. The research comparatively examines the concept of love in Agahi’s ghazals alongside Sufi views, Eastern philosophical thought, and traditions of classical literature. Furthermore, the spiritual significance of love in contemporary society is discussed.

Keywords: Agahi, love, ‘ishq’, Sufism, spiritual perfection, divine love, lyrics, “Ta’viz ul-oshiqin”.

KIRISH (INTRODUCTION)

Sharq mumtoz adabiyotida muhabbat mavzusi inson ma’naviy olamini yorituvchi eng muhim g‘oyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tasavvufiy adabiyotda ishq insonni ilohiy haqiqatga eltuvchi ruhiy kuch sifatida talqin etiladi. Alisher Navoiy, Jomiy,

Fuzuliy kabi mutafakkirlar ijodida muhabbat komillikka yetkazuvchi vosita sifatida kuylangan bo‘lsa, Ogahiy lirikasida ham ushbu an‘ana davom ettiriladi.

Ogahiyning “Ta‘viz ul-oshiqin” devoni to‘liq ishqiy mazmun bilan sug‘orilgan bo‘lib, unda muhabbatning majoziy va ilohiy qirralari uyg‘un holda tasvirlangan. Shoir g‘azallarida oshiqning visolga intilishi, hijron azoblari, yor husniga oshuftaligi orqali inson qalbining ruhiy kamolot sari harakati ifodalanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi: Ogahiy lirikasida muhabbatning badiiy-falsafiy mohiyatini ochib berish, ishqning ilohiy va ma‘naviy talqinini tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS)

Tadqiqot davomida qiyosiy-adabiy, tahliliy va germeneytik metodlardan foydalanildi. Ogahiy g‘azallaridagi muhabbat talqini Sharq tasavvuf adabiyoti namunalari hamda Navoiy, Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Ibn Sino va G‘azzoliy qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, matn tarkibidagi badiiy timsollar — “ishq sharobi”, “oshiq”, “mahfil”, “dard” kabi tushunchalar semantik jihatdan sharhlanib, ularning tasavvufiy ma‘nolari ochib berildi. Tadqiqotda tarixiylik va zamonaviylik tamoyiliga asoslanilib, Ogahiy muhabbat falsafasining bugungi davr uchun dolzarbligi ham yoritildi.

NATIJALAR (RESULTS)

Muhabbat Ogahiy asarida ilohiy va ma‘naviy ishq timsolidir. “Ta‘viz ul-oshiqin” – nomidan ko‘rinib turibdiki, to‘liq ishqiy devon. Demak, muhabbat (ishq) – devon mazmun-mundarijasining markazida turadi. Ogahiy lirikasida muhabbat asosan yorga ishq tarzida, ya‘ni majoziy muhabbat shaklida kuylanadi. Biroq bu majoziy ishq zamirida ko‘pincha ilohiy ishq falsafasi, oshiqning ma‘naviy intilishlari yotadi. Ogahiy g‘azallari va muxammaslarida oshiqning visolga talpinişi, hijronda qiynalishi, yor husniga oshuftaligi tasvirlanar ekan, shoir muhabbatni insonni poklaydigan olov sifatida taqdim etadi. Uning talqinicha, ishq o‘tida yonib, oshiq ma‘naviy poklanishga erishadi. Bu ma‘no ayrim g‘azallarining matla‘ yoxud maqta‘ baytlarida aniq ifodalangan. Masalan, shoir bir g‘azalida bunday deydi: “Bu mahfil ichra kimga ichirsa sharobi ishq, Aylar murodi nash‘asidin komyob ishq” [1.284]. Mazmuni: “Bu ulug‘ mahfil – ishq bazmida kimga ishq sharobidan ichishga muyassar bo‘lsa, ishq o‘sha mastlik nash‘asidan uning barcha orzularini ushalmagan qiladi (ya‘ni ishq mastligi – orzu-intilishlarning ruyobi).” Bu bayt ishqni sharobga qiyoslab, uning “nash‘asi” (mast qiluvchi zavqi) oshiqni tamoman to‘ldirib, murod-maqsadiga yetkazishini ta‘kidlaydi. Demak, Ogahiy nazarida muhabbat – komillikka eltuvchi kuch. Ishq ichgan oshiq orzu-armonlariga yetadi, kamol topadi. Bu fikr tasavvuf tafakkuridagi “ishq ilohiy haqiqatga eltuvchi yo‘l” degan g‘oyaga hamohang. Haqiqatan ham, Jaloliddin Rumiy: “Ishq xoh majoziy bo‘lsin, xoh haqiqiy oxir oqibatda haqiqatga yetkazur”[2.9], deb yozgan edi. Navoiy ham “Ishq yo‘lida ne mardonalar jonu jahondan kechdi” mazmunida ishqni oliy qadriyat sifatida madh etgan. Ogahiy yuqoridagi bayti bilan shu an‘anani davom ettirib, ishq ta‘rifi va qudratini hikmatomuz ohangda ifoda qilgan.

Baytda ishq sharobga, oshiq esa uni ichib mast bo‘luvchi shaxsga qiyos qilinmoqda. Sharob – tasavvuf she‘riyatida ma‘naviy mastlik, ilohiy ishq ramzi ekanligi ma‘lum. Ogahiy ham “sharobi ishq” (ishq sharobi) degan ibora orqali bu ramzni qo‘llaydi. Ichirsa fe‘li bu ne‘matning in‘om tarzida kelishini ko‘rsatadi – ya‘ni ishq hamma oshiq bo‘lishni xohlaganga berilavermaydi, bu Xudoning atog‘i (inoiyati) bilan beriladigan ne‘mat. “Mahfil ichra” (majlis ichida) iborasi ham umumiy makon – dunyo yoki ishq olami – ni bildirishi mumkin. Ya‘ni, ilohiy ishq bazmida kimga bu sharobdan totish nasib etsa, u komyob (to‘laqonli baxtli) bo‘ladi. Bu yerda murod nash‘asi iborasi diqqatga sazovor: murod – maqsad, nash‘a – mastlik zavqi. Oshiq ishq sharobidan totgach, butun murod-maqsadining o‘rnini ishqning o‘zi egallaydi – u endi boshqa hech nimaga muhtoj emas, ishqning ma‘naviy lazzati uning uchun oliy saodatdir. Bu, albatta, so‘fiyona muhabbat tushunchasidir. Tasavvufda Haq ishq bandaning dilini to‘ldirgach, bandada dunyoviy orzu qolmaydi, barcha maqsadi – Ma‘shuqning (Allohning) o‘zi bo‘ladi. Baytdagi “komyob ishq” iborasi ham shuni anglatadi: ishqdan topgan mastlik – oshiqning komilligi, baxtiyorligi belgisi.

Ogahiy ishqni shunday yuqori pardalarda kuylarkan, albatta, zohiriy syujet – go‘zal yor va sodiq oshiq qissasini tasvirlagan. Lekin har bir badiiy detal oshiq qalbining ilohiy dardga yo‘g‘rilganini ko‘rsatadi. Ishq sharobi – dunyoviy muhabbatni ham qamrab oluvchi, ammo ruhiy masruriyat baxsh etuvchi tuyg‘u. Baytni boshqa bir g‘azaldagi ma‘noga tutash tarzda talqin qilsa bo‘ladi: “Ikki jahon mamoliki ma‘mur bulg‘usi, Qilg‘on kishiga kishvari jonin xarob ishq”[1.284].

Ogahiy she‘riyati ana shunday ishq falsafasi bilan sug‘orilgan bo‘lib, alohida baytlarda shoir oshiqning tolei (baxti) ishq tufayligina oshkor bo‘lishini ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, ishqni totmagan – hayot lazzatini totmagan, degan naql bor. Ogahiy ham bu g‘oyani poetik shaklda ilgari suradi.

Sharq adabiyoti va falsafasida muhabbat eng oliy mavzulardan sanaladi. Islomda muhabbatning oliy ko‘rinishi – Allohga bo‘lgan muhabbat (mahabatullah). Qur‘onda: “Ayting (ey, Muhammad): “Agar Allohni sevsangiz, menga ergashingiz. Shunda Alloh sizlarni sevadi va gunohlaringizni mag‘firat etadi. Alloh kechiruvchi va rahmlidir” [3.36] degan oyat musulmonlarni ilohiy muhabbat yo‘liga chorlasa, hadislarida “Birovni Alloh uchun sevmog‘ingiz imondandir” deb, sof muhabbat iymon alomati ekanligi uqtiriladi. Tasavvufda Junaid Bag‘dodiy muhabbatni “qalbning Allohdan o‘zga hamma narsani chiqarib tashlashi” deb tariflagan. Navoiy ham “Muhabbat – Haq rohi, ma‘shuqlik andin zohir ol” deya ilohiy ishqni haqiqat ro‘hining asosi sifatida qaraydi. Ogahiy g‘azaliyotida Navoiyning ishq haqidagi g‘oyalari ijodiy davom ettirilgani kuzatiladi. Masalan, Navoiy “Farhod va Shirin”da ishq insonni yuksak jasorat va sabrga undashini ko‘rsatsa, Ogahiy ham ishq oshiqni qo‘rqmas va barqaror qilishini bir necha o‘rinda ta‘kidlaydi: “Ishq yo‘lida hatto Majnun misoli hushdan ayrilmoq or emas, ishq ahli telbaligi sharaf” mazmunidagi misralari bunga dalildir.

Koshifiy (Husayn Voiz) o‘zining “Futuvvatnoma” asarida vafo va sadoqat bilan bir qatorda muhabbatni ham futuvvatning asosiy sifatlaridan biri sifatida e‘tirof etadi[4.15]. Uning fikricha, muhabbat insonni komil qiladi, chunki muhabbatsiz qalb – o‘lik qalbdir. Ogahiy ham bu ruhda yozadi: “Ishq dardidan xoli ko‘ngil vayronadir”,

deb, ishqsiz yurakni xarobaga qiyoslaydi. Bu fikr falsafa tarixida Ibn Sino qarashlariga ham uyg'un: Ibn Sino muhabbatni borliqni harakatga keltiruvchi tamoyil deb qaragan. G'azzoliy esa muhabbatni ma'rifat natijasi deb bilib, "Banda Haqni tanisa, albatta sevadi", degan. Shunday ekan, Ogahiy lirikasidagi ishqni faqat majoziy oshiq-ma'shuq o'yini deb bo'lmaydi – uning tagida falsafiy qatlam bor.

Ogahiy oshig'i dardmand oshiq. Bu obrazi bilan shoir "ilohiy dard" tushunchasini xotirlatadi. Ma'lumki, mutasavvif shoirlar qalb dardini ilohiy ne'mat deb bilishgan. Mahmud Shabistariy: "Dil dardi – dardlar ichra shifo bo'lur", degan edi. Ogahiyda ham: "Ishq ofati jondur, ammo oshiq uchun ayni davodur" mazmunidagi baytlar uchraydi. Bu – muhabbatning paradoksal tavsifi: u bir paytning o'zida azob ham, shifo ham. Shoir bir o'rinda yozadi: "Ishq ichra azob bo'ldug'in ondin bilurmenkim, Har kimsa ki oshiqdur, ishi hamisha fig'ondur." Ya'ni: "Ishqning azob ekanini men shundan bilamanki, kim oshiq bo'lsa, ishq doim nola-yu fig'on bilan kechadi." Biroq shu fig'on, shu dard oshiqni yuksakka – ma'naviy kamolikka eltadi, "komyob" qiladi. Ogahiy talqinida muhabbat fidoyilik va qo'rquzsizlik bilan uzviy: oshiq yor yo'lida jonini ham ayamasa, bu uning baxti. Shunga monand, Farobiy komil inson haqidagi ta'limotida muhabbatni ezgulik va olijanoblik bilan bog'laydi – komil inson rahmdil va adolatli bo'lish bilan birga muhabbatli bo'ladi, boshqalarga muxlis va inoyatli bo'ladi. Chunki muhabbat bor joyda zolimlik va zarar yo'q.

Ogahiy devonida oshiqning fidoyiligi ko'p baytlarda namoyon: masalan, "Ishqing g'amiki ruzi azaldur bidoyati, Shomi abaddin o'tkusi oning nihoyati" [5.56] kabi satrlar bor. Shuningdek, vafo va sadoqat tushunchalari muhabbat kontekstida bir necha o'rinda tilga olinadi.

Muhabbat mavzusi abadiy bo'lib, har bir davrda insoniyatning markaziy masalasi bo'lib qolaveradi. XXI asrda globallashtirish va texnologiyalar taraqqiy etgan sari insonlarning yuzaki aloqalari ko'payib, chuqur tuyg'ular qadrsizlanayotgandek tuyuladi. Ana shunday sharoitda Ogahiy g'azaliyotidagi samimiy va fidoyi muhabbat saboqlari alohida qiymatga ega. Ogahiy oshig'i sevgi yo'lida chekkan jafolaridan nolimaydi, balki dardini g'animat biladi. Bugun yoshlar orasida sevgi tushunchasiga yengil-elpi qarash hollari uchraydi – qisqa muddatli ehtiroslarni muhabbat deb atash yoki muhabbatni faqat jismoniy yaqinlikka toraytirish kabilar. Ogahiy esa muhabbatni qalb holati, ruhiy yuksalish sifatida sharhlaydi. Uning she'rlaridagi oshiq yori husniga oshufta, ammo bu hushdan ketish aslida ma'naviy hushyorlikka olib keladi: oshiq o'zini tanib, olamni yangi nigoh bilan ko'radi. Bu jihatdan, Ogahiy talqini zamonaviy psixologiya tamoyillariga ham uyg'un – chin sevgi insonni o'zgartiradi, uni yaxshilik sari ilhomlantiradi, ichki salohiyatini ochib beradi.

Bundan tashqari, Ogahiy muhabbati – sadoqatli muhabbat. Bunday sadoqat bugungi kunda ham eng yuksak insoniy fazilatlardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Ogahiy muhabbati nafaqat yorga, balki Vatanga, do'stga nisbatan ham sadoqat bilan o'lchanishini eslatadi – devonda Vatanni madh etuvchi, xalqqa muhabbatini izhor qiluvchi misralar ham uchraydi. Demak, muhabbat tushunchasi keng: Yaratganga muhabbat, insoniyatga muhabbat, ezgulik va haqiqatga muhabbat – bularning barchasi bir zanjirning halqalari kabi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Ogahiy lirikasidagi muhabbat talqini Sharq tasavvuf falsafasi bilan uyg'unlik kasb etadi. Jomiy va Navoiy ijodida bo'lgani kabi, Ogahiy ham ishqni insonni ilohiy haqiqatga eltuvchi vosita sifatida ko'radi. Biroq shoirning o'ziga xos jihati shundaki, u muhabbatni nafaqat ruhiy tajriba, balki inson qalbini poklovchi ichki olov sifatida tasvirlaydi. Shoirning bunday qarashlari uning g'azallarida ishlatilgan obraz va timsollar orqali yanada chuqurroq ifodalanadi.

Ogahiy talqinidagi oshiq obrazi dardmand va fidoyi oshiqdir. U hijron azobini ham ne'mat deb biladi. Bu holat tasavvufdagi “ilohiy dard” tushunchasi bilan hamohangdir. Tasavvuf ta'limotida inson qalbining iztirobi uni Haqqa yaqinlashtiruvchi vosita sifatida qaraladi. Ogahiy she'riyatida ham oshiqning fig'on va iztirobi oddiy ruhiy kechinma emas, balki ma'naviy kamolotning bir bosqichi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli shoir hijronni faqat ayriliq emas, balki qalbni poklovchi sinov sifatida ko'rsatadi.

Shoirning muhabbat haqidagi qarashlari Navoiy an'analari bilan ham uzviy bog'liqdir. Navoiy “Lison ut-tayr” va “Farhod va Shirin” asarlarida ishqni insonni jasorat, sabr va fidoyilikka undovchi kuch sifatida talqin qilgan bo'lsa, Ogahiy ham oshiqning muhabbat yo'lida barcha qiyinchiliklarga bardosh berishini madh etadi. Biroq Ogahiy she'riyatida ishqning ruhiy-axloqiy qirrasini yanada kuchliroq namoyon bo'ladi. Chunki uning oshig'i muhabbat orqali o'z nafsini yengadi, dunyoviy manfaatlardan voz kechadi va ma'naviy poklik sari intiladi.

Muhabbatning sharob timsolida tasvirlanishi ham Ogahiy poetikasining muhim jihatlaridan biridir. Sharob mumtoz adabiyotda ilohiy zavq va ma'naviy mastlik ramzi hisoblanadi. Shoir “sharobi ishq” obrazini qo'llash orqali ishqning inson qalbini to'liq egallovchi kuch ekanini ko'rsatadi. Bu mastlik insonni dunyoviy tashvishlardan yiroqlashtirib, uni ruhiy ozodlikka olib keladi. Tasavvufda bunday holat “fano” tushunchasi bilan bog'lanadi. Ya'ni oshiq o'z “men”idan voz kechib, ilohiy haqiqat bilan uyg'unlashishga intiladi.

Ogahiy she'riyatidagi muhabbat talqini faqat diniy-falsafiy ma'nodagina emas, balki axloqiy-ma'rifiy jihatdan ham muhimdir. Shoir muhabbatni insoniy fazilatlarni shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida ko'rsatadi. Uning nazarida chin muhabbat insonni mehribon, sabrli, sadoqatli va fidoyi qiladi. Shu jihatdan Ogahiy lirikasidagi ishq g'oyasi bugungi jamiyat uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Hozirgi globallashuv va texnologiyalar rivojlangan davrda insoniy munosabatlarning yuzakilashuvi, qisqa muddatli manfaatlarga asoslangan aloqalarning ko'payishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda Ogahiy she'riyatidagi sadoqat va samimiyat g'oyalari yosh avlod uchun muhim ma'naviy mezon bo'lib xizmat qiladi. Shoir muhabbatni faqat hissiy ehtiros emas, balki insonni komillikka eltuvchi ma'naviy kuch sifatida talqin qiladi. Bu qarash zamonaviy psixologik va axloqiy qarashlar bilan ham uyg'unlik kasb etadi. Chunki bugungi ilmiy qarashlarda ham chin

muhabbat insonning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy faolligi va ichki kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, Ogahiy muhabbatni keng ma'noda tushunadi. Uning she'riyatida muhabbat faqat yorga nisbatan tuyg'u emas, balki Vatanga, insoniyatga, haqiqatga va ezgulikka muhabbat tarzida ham talqin etiladi. Shu bois shoirning ishq haqidagi qarashlari umuminsoniy mohiyat kasb etadi. Ogahiy nazarida muhabbat insoniyatni birlashtiruvchi, jamiyatni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi kuchdir.

Umuman olganda, Ogahiy lirikasidagi muhabbat talqini Sharq mumtoz adabiyotidagi tasavvufiy-falsafiy an'analarni davom ettirgan holda, o'ziga xos poetik va ma'naviy mazmun kasb etadi. Shoir muhabbatni inson qalbini poklovchi, uni komillik sari yetaklovchi ilohiy ne'mat sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan uning ijodi bugungi davr uchun ham muhim ma'naviy va axloqiy ahamiyatga ega.

XULOSA (CONCLUSION)

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Ogahiy lirikasida muhabbat – hayot mazmuni va harakatlantiruvchi kuch sifatida talqin etiladi. U ishqni ilohiylashtirar ekan, inson qalbini sayqallovchi olov sifatida ko'radi. Bu olovda yonish insonni poklab, kamolotga yetaklaydi. Shu bois, Ogahiy oshig'i muhabbat sharobidan mast – bu mastlik esa uni dunyo tashvishlaridan oritib, yuksak ma'naviy holatga ko'taradi.

Zamonaviy davrda ham chin muhabbat insonni yuksak ishlarga ilhomlantirishi, uni yaxshi tomonga o'zgartirishi isbotlanayotgan haqiqatdir. Ogahiy merosi esa bu borada bebaho ma'naviy qo'llanmadir – unda muhabbatning sharaf va azoblari, lekin har ikki holatda ham uning inson uchun qadrlil ne'mat ekani dilga yaqin va keng qamrovli talqin etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy Asarlar. I jild. // Nashrga tayyorlovchi: G'ulom Karim, muharrir: Subutoy Dolimov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 392 b.
2. Mavlono. Masnaviy, turkcha tarjima I-jild. - Istanbul: 1990. - B. 9.
3. Qur'oni Karim // Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – T.: Cho'lpon 1992. – 483 b.
4. Husayn Voiz Koshifiy Futuvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati // Fors-tojik tilidan N. Komilov tarjimasi. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 112 b.
5. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy Asarlar. I jild. // Nashrga tayyorlovchi: G'ulom Karim, muharrir: Subutoy Dolimov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 418 b.
6. Shavkatov Sh. Ogahiy ijodidagi axloqiy qadriyatlar tizimining germeneyvtik interpretatsiyasi. (2026). Ijtimoiy-Gumanitar Sohada Ilmiy-Innovatsion Tadqiqotlar, 3(3), 197-203. <https://publishscience.uz/sirsh/article/view/726>